



KIMYO FANINI O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Abdullayeva Dilorom
Nosir qizi

O'zbekiston Milliy Pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
1-bosqich magistranti
abdullahayevadilorom95@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek xalq ertaklarining badiiy xususiyatlari, xalq ijodidagi o'rni, yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Ertaklar orqali avloddan-avlodga o'tib kelayotgan axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy saboqlar va xalq donishmandligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ertaklarning turlari, ularda uchraydigan obrazlar, ularning ramziy va tarbiyaviy ma'nolari ochib beriladi. O'zbek xalq ertaklarini zamonaviy interfaol metodlar orqali o'qitishning yangi usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ertaklar, xalq og'zaki ijodi, epik janr, axloqiy tarbiya, ijobiy obrazlar, ramz, rivoyat, badiiyat.

Аннотация: В статье рассматриваются художественные особенности узбекских народных сказок, их место в народном творчестве и значение в воспитании подрастающего поколения. Анализируются нравственные ценности, социальные уроки и народная мудрость, передаваемые из поколения в поколение через сказки. Также раскрываются виды сказок, образы, встречающиеся в них, их символическое и воспитательное значение. Обсуждаются новые методы преподавания узбекских народных сказок с использованием современных интерактивных методов.

Ключевые слова: сказки, народное устное творчество, эпический жанр, нравственное воспитание, позитивные образы, символ, повествование, искусство.

Annotation: This article discusses the artistic characteristics of Uzbek folk tales, their place in folk art, and their importance in educating the younger generation. The moral values, social lessons, and folk wisdom passed down from generation to generation through fairy tales are analyzed. The types of fairy tales, the images found in them, and their symbolic and educational meanings are also revealed. New methods of teaching Uzbek folk tales using modern interactive methods are discussed.

Keywords: fairy tales, folk oral art, epic genre, moral education, positive images, symbol, narrative, art.

Kirish

Har bir xalqning madaniyati va ma'naviyati, avvalo, uning og'zaki ijodida, xalq og'zaki ijodi esa eng avvalo ertaklarida mujassam. O'zbek xalq ertaklari asrlar davomida shakllanib, xalqning orzusi, dard-u hasrati, or-nomusi, haqida kuylaydi. Ertaklarda azaliy kurash olib boradigan ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va egrilik kabilalar o'quvchi ongida kelajakdagi hayotga tayyorlov vazifasini o'taydi. Bugungi kunda bu ertaklar nafaqat badiiy meros sifatida, balki yosh avlodga ma'naviy tarbiya berishda kuchli vosita sifatida xizmat qilmoqda.

O'zbek ertaklari bolalarni eng avvalo milliy ruhda tarbiyalaydi. Undagi obrazlar, tilning soddaligi, tugal syujetlar bolalarda tasavvur va tafakkurni rivojlantiradi. yaxshilikning g'alaba qilishi – bolalarning tafakkurini, adolat tuyg'usini shakllantiradi. Ertaklarda ko'tarilgan mavzular – mehnatsevarlik, halollik, sabr, vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, do'stlik va boshqalar – bugungi jamiyat uchun ham juda dolzarbdir. Ayniqsa, ertaklar orqali axloqiy saboqlar berilishi – ular tarbiyaviy vosita sifatida qanchalik kuchli ekanini ko'rsatadi. Bugungi kunda bu ertaklar o'quv dasturlarida, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda keng qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, o'zbek xalq ertaklarining badiiy talqini zamonaviy adabiyot va ommaviy madaniyatda ham o'z aksini topmoqda.

Zamonaviy pedagogik tajriba shuni ko'rsatadagi, ertak o'quvchilarda axloqiy-estetik hislarni kuchaytiradi, ular hayotdagi turli voqeа-hodisalarini anglashda ertaklar timsolidagi ijobiy va salbiy obrazlar orqali tahlil qilishga o'rganadilar. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan "ertakni sahnalashtirish", "ertak oxirini davom ettirish" kabi metodlar orqali ishslash juda samarali natijalar bermoqda.

Shuningdek, xalq ertaklarida mavjud qahramonlik motivlari, g'aroyib kuchlarga ega bo'lish, ramziy belgilari bolalarda tasavvur va fantaziya dunyosini kengaytiradi. Bu esa ularning ijodiy fikrlashiga, mustaqil tahlilga va og'zaki nutqning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda milliy merosni asrash va targ'ib qilish borasida ko'plab madaniy loyihibar, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida ertaklarni o'rganishga qaratilgan dars ishlanmalari ishlab chiqilmoqda. Bolalar adabiyotida xalq ertaklari asosida yaratilgan yangi talqinlar, multfilmlar va sahna asarlari bu jarayonni yanada jonlantirmoqda..

Beshinchи sinf adabiyot fanida ham "Ertaklar" mavzusi keltirilgan bo'lib, bu mavzuda o'zbek xalq og'zaki ijodining mashhur ertaklaridan biri "Uch og'a-ini botirlar" ertagi keltirilgan. Ushbu ertak o'quvchilarning boy ma'naviy ozuqa olishlariga katta yordam beradi. Ota va bola munosabatlari, o'zbek xalqiga xos milliy tarbiya, ham aqlan, ham jismonan kuchli qilib tarbilash bu ertakning eng ustuvor xususiyatlaridir. Shu sababli, uni o'qitishga alohida e'tiboe qaratish lozim. Bu mavzuni o'tishda o'qituvchi ayrim interfaol metodlarni qo'llashi, ulardan unumli foydalangan holatda ko'zlangan maqsadga yetishi mumkin.

Avvalo, ertaklar haqida qisqacha tasavvur uyg'otish uchun, u haqida nazariy ma'lumotlar berib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun "Jadval" metodidan yoki "Klaster" metodidan foydalanish mumkin.

1- Topshiriq "Jadval"

T/r	Bo'lim nomlari	Ma'lumotlar
-----	----------------	-------------

1	Ta’rifi	Xalq og‘zaki ijodining asosiy janri; uydirma va to‘qima asosidagi sarguzasht, sehrli yoki maishiy epik asar.
2	Ifodalanishi	Asosan nasriy, ba’zan she’riy
3	Ilk manbaa	Mahmud Koshg‘ariy — “Devonu lug‘otit turk” asarida " etyuk " shaklida qayd etilgan (og‘zaki hikoya ma’nosida)
4	Hududiy nomlanishi	<ul style="list-style-type: none"> - Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona: matal - Buxoro atrofida: ushuk - Xorazm: varsaqi - Toshkent: cho‘pchak
5	Xususiyatlari	<ul style="list-style-type: none"> - Uydirmaga asoslangan - Sehrli voqealar - G‘ayritabiyy jasorat - Dinamik syujet - Tilsim va mo‘jiza asosida
6	Turlari	<ul style="list-style-type: none"> - Xayoliy uydirmalar asosidagi ertaklar – sehrli va mo‘jizali - Hayotiy uydirmalar asosidagi ertaklar – real voqealarga yaqin
7	Ertaklardan ko‘zlangan asosiy 3 maqsad	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ideal qahramon jasorati (xalqni himoya qilish) 2. Muhabbat – parizodga uylanish, dori topish 3. Adolatsizlikka qarshi kurash
8	Ertak turlari	<ul style="list-style-type: none"> - Sehrli ertaklar - Maishiy ertaklar - Hayvonlar haqidagi ertaklar - Hajviy ertaklar

Berilgan ma'lumotlarni yanada mustahkamroq eslab qolishlari uchun, ushbu ma'lumotlar asosida test taqdim etish esa xotirani mustahkamlashga yanada katta samara bera oladi.

2-Topshiriq “Test” topshiriqlari

1. Ertak janrining asosiy xususiyati nimada?

- A) Real tarixiy voqealarni tasvirlash
- B) Faqat she’riy shaklda bo‘lishi
- C) To‘qima va uydirmaga asoslanganligi
- D) Faqat ma’naviy masalalarni ko‘tarishi

2. Ertaklar asosan qanday shaklda yaratilgan?

- A) She’r tarzida
- B) Nasr shaklida

- C) Dramaturgiya shaklida
 D) Dialog tarzida

3. “Ertak” so‘zining qadimiy manbada qayd etilgan ko‘rinishi qaysi?

- A) Chöpchäk
 B) Tilsim
C) Etyuk
 D) Majoz

4. Xorazmda ertakka qanday atama ishlatalgan?

- A) Ushuk
 B) Matal
C) Varsaqi
 D) Doston

5. Ertaklarda syujet qanday uslubda rivojlanadi?

- A) Sekin, tavsifiy
B) Dinamik, sarguzashtli
 C) Falsafiy, ichki monologga boy
 D) Soddalashtirilgan hikoyaviy

6. Quyidagi ertak turlaridan qaysi biri majoziy ertaklarga misoldir?

- A) “Zargar bola”
B) “Bo‘ri bilan tulki”
 C) “Zumrad va Qimmat”
 D) “Bahodir va dev”

7. Hayotiy uydirmalarga asoslangan ertaklarda qanday syujet bo‘ladi?

- A) Realistik, hayotga yaqin**
 B) Mo‘jizaviy
 C) Faqat hajviy
 D) Doim dramatic

8. Ertakdagagi ikkinchi asosiy maqsad nimani ifodalaydi?

- A) Pahlavonlikni, jasoratni
B) Oshiq bo‘lish, dori topish, odamlarni ozod qilish
 C) Zulmga qarshi kurashish
 D) Hayvonlarning hayotini tasvirlash

9. Ertaklarda uydirma qanday rol o‘ynaydi?

- A) Faqat hazil uchun ishlataladi
 B) Asar tili va ifodasini kuchaytiradi
C) Syujetning asosini tashkil etadi
 D) Uydirma faqat boshlanishda bo‘ladi

10. Tulki obrazining majoziy ma’nosini nimani ifodalaydi?

- A) Vafodorlik va sadoqat
B) Ayyorlik va tilyog‘lamachilik
 C) Yovuzlik va g‘azab
 D) Aql va donishmandlik

“O‘zimiz ertak to‘qiymiz”

–Sinf uch guruhga bo‘linadi. Har bir guruh alohida ertak to‘qiysi.

—“Oltin qanotli kabutar”, “Uch boshli ajdar va donishmand bola”, “Tilsimli oyna ortidagi dunyo” ertak uchun mavzulari guruhlarga beriladi.

—Mo‘jiza, ertak qahramoni, muammo, g‘oya, uydirma, yakun, xulosa – elementlari bo‘lishi kerak


3-topshiriq

“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi asosida

1.Ertak qahramonlariga ta’rif bering. “Jadval” metodi

T/r	Ota	To‘ng‘ich botir	O‘rtancha botir	Kenja botir	Podshoh va vazir
1					

2.Ertakni quyidagi klassterga joylang. “Klaster” metodi



Xulosa

O'zbek xalq ertaklari bolalarni hayotga tayyorlaydi, ularni yaxshilik, halollik, adolat, sabr, mehnatsevarlik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalaydi. Har bir obraz, syujet, ijobiy yoki salbiy xarakter orqali muayyan ijtimoiy xulq-atvor modellarini o'rgatadi. Ayniqsa, ertaklarning og'zaki shaklda avloddan-avlodga o'tib kelgani ularning xalqqa xos, tabiiy tarbiya vositasi ekanini isbotlaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida xalq ertaklaridan samarali foydalanish o'quvchilarda adabiy-estetik did, tanqidiy tafakkur, so'z boyligi va og'zaki nutqni shakllantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, interfaol usullar yordamida ertaklarni o'rganish – bolani faollikka, mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga undaydi. Shu bois bu ertaklarni tanitish, o'rganish, o'rgatish va ulardan zamonaviy metodlar asosida foydalanish har bir pedagog, adabiyotshunos va tarbiyachining ustuvor vazifasidir. Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq ertaklari bu – ajdodlar merosi, bugungi avlod uchun ma'naviy tayanch, kelajak uchun esa tarbiya maktabidir. Ularni o'rganish va targ'ib qilish orqali biz nafaqat boy madaniy merosni asraymiz, balki yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalash yo'lida mustahkam zamin yaratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://tsuull.uz/sites/default/files/til_va_adabiyot_talimi.pdf
2. Azizzxo'jayev N.M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adolat, 2006.
3. Bahriyev 3.A., Bahriyeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish. Xalq ta'limi jurnali, 2006
- 4.5-sinf adabiyot darsligi. Toshkebt - 2024